



UO'T: 347.235

## YER QONUNCHILIGI BUZILISHINING QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINING SAMARADORLIGI VA AYLANMASIGA TA'SIRI

Usmonov Jasur Ziyodillayevich 

Kadastr agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i, q.x.f.f.d (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish jarayonida kuzatilayotgan qonunbuzilishlar, xususan yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish va noqonuniy qurilishlar qurib olishning qishloq xo'jaligi aylanmasiga ko'rsatayotgan ta'siri atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, yer, nazorat, auksion, texnologiya, so'rovнома, oborot, aholi.

**Аннотация.** В статье проанализировано влияние нарушений, происходящих в процессе использования сельскохозяйственных земель, в частности самовольного занятия земельных участков и строительства незаконных объектов, на сельскохозяйственный оборот.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, земля, контроль, аукцион, технология, обследование, оборот, население.

**Abstract.** The article analyzes the impact of violations observed in the process of using agricultural lands, in particular the unauthorized occupation of land plots and the construction of illegal buildings, on the agricultural turnover.

**Keywords:** agriculture, land, control, auction, Technology, Survey, oborot, population.

### KIRISH

Yer shari quruqlik maydoni 13,2 mlrd. gektarni tashkil etib, hozirgi kunda uning 12 foizi (1,6 mlrd. ga) qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda foydalaniladi [7]. Ularning miqdori va sifati turli-tuman tabiiy hamda antropogen ta'sirlar oqibatida yildan yilga kamayib ketmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda yer uchastkalaridan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta'minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Sug'oriladigan yerlarni qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan yer




## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

fondining boshqa toifasiga yoki sug'orilmaydigan yerlar toifasiga o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, sug'orilmaydigan yerlarni yer fondining boshqa toifasiga o'tkazish esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, Yer uchastkalarini ajratishning barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartibini joriy etildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar barcha turdagi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ishtirok eta oladigan, natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadigan ochiq elektron tanlov yakunlariga ko'ra, faqat ijara huquqida, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar esa mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinadi.

Biroq, hududlarda yuqoridagi yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurib olish, shuningdek, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash holatlari uchramoqda. Buning natijasida respublikamiz bo'yicha minglab gektar qishloq xo'jalik yerlari ayniqsa sug'oriladigan ekin yer maydonlari xech bir sababsiz qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketmoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2022-2024-yillar oralig'ida jami 116 338 ta holatda 22 195 gektar yer maydonlari o'zboshimchalik bilan egallab olinib noqonuniy qurilish qilingan bo'lsa, shuning 16 855 gektari (76 foizi) qishloq xo'jalik yer maydonlaridan iborat (1-rasm).



**1-rasm. 2022-2024-yillar davomida noqonuniy qurilish maqsadida o'zboshimchalik bilan egallab olingan qishloq xo'jalik yerlari.**

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, yaqin uch yil ichida 16,8 ming gektar qishloq xo'jalik yerlari aynan o'zboshimchalik bilan egallab olinishi hisobiga qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketgan. Bu esa mazkur yer qonunbuzilishlarining o'zi bilan xar yili 5-6 ming gektar qishloq xo'jalik yerlari oborotdan chiqib ketayotganligini ko'rsatadi.

Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olishni keltirib chiqaradigan sabablar quyidagilar:

- aholi sonining o'sishi bilan yerga bo'lgan talab ortib, ayrim shaxslar qonuniy yuldan emas, o'zboshimchalik bilan egallab olishga harakat qiladi;

- aholining huquqiy savodxonligi pastligi yer uchastkasini qonun yo'li bilan olish tartibini bilmaslik;

- jamoatchilik nazorati sustligi, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari yetarli darajada faol emasligi;

- nazorat organlari o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yerdan noqonuniy foydalanish holatlari vaqtida aniqlanmasligi.

Shuningdek, yashashga qulay joylarga talab yuqoriligi sabab yo'l yoqalari, suv manbalari yaqin, shahar atrofi yerlarini egallab olish nisbatan yuqori bo'ladi.

Shu sababli vakolatli idoralar o'rtasida samarali yer nazorat tizimini yo'lga qo'yish hamda sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida hokim yordamchilari va fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlariga mutasaddi idoralarga so'rovnomalarni elektron tarzda yuborish va nazorat qilish imkonini beruvchi maxsus elektron dastur ishlab chiqildi.

Hududlarda yer talon-tarojliklarini oldini olish va yuqoridagi qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan mazkur dastur:

- yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash va noqonuniy qurilishlarni barvaqt aniqlash bo'yicha fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari va hokim yordamchilari ma'suliyatini oshirish;

- har bir hududdagi qurilishi boshlangan har qanday bino yoki inshootlarning qonuniyligini o'z vaqtida o'rganish;

- so'rovnoma yuborish va ijrosini ta'minlash mexanizmini soddalashtirish hamda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi ustidan nazorat o'rnatish;

- yuborilgan so'rovnomalar va ularning ko'rib chiqish natijalari haqida real vaqt rejimida statistik ma'lumotlarni olish;

- sohadagi mavjud tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish imkonini beradi.

### **XULOSA, TAKLIF VA TAVSIYALAR.**

Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olinishini oldini olish uchun esa qonunchilikni takomillashtirish, yer ajratishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, nazorat tizimini kuchaytirish hamda aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ishsizlikni kamaytirish va aholini yerdan samarali foydalanishga rag'batlantirish choralari ham o'z samarasini beradi.

---

## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

---

### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi". – Toshkent: "Adolat", qo'shimcha va o'zgartishlar bilan, 2024.

2. O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2023-yil 23-oktyabrdagi O'RQ-871-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5742-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi «Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-6243-son Farmoni.

5. Abdullayev Sh. "Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish muammolari"// "Agrar fanlar" jurnali, №4, 2022. – B. 45-52.

6. Maxmudov, A. "Yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash holatlarini oldini olishda nazorat organlarining roli". // "Huquq va burch", №2, 2023. – B. 18-24.

7. FAO. 2011. The state of the world's land and water resources for food and agriculture (SOLAW) – Managing systems at risk. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome and Earthscan, London.  
<https://doi.org/10.4060/cb7654ru>